

## XII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

### Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2021- yil yanvar-iyun, dastlabki ma'lumot)

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Andijon viloyati bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) ishlovchilarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 575,1 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga oshdi.

O'rtacha oylik ish haqini hisoblash uchun qabul qilingan ishlovchilar soni 206,1 ming kishini tashkil etdi va ular viloyatda faoliyat yuritayotgan 4 892 ta korxona va tashkilotlarda mehnat qilayotganligi aniqlandi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi, foizda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

	<b>Korxona va tashkilotlar soni</b>	<b>123,6%</b>
	<b>Xodimlar soni</b>	<b>104,0%</b>
	<b>Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar</b>	<b>114,5%</b>
	<b>O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi</b>	<b>108,5%</b>


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'zgarishi**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, yanvar-iyun oylari)

№	Iqtisodiy faoliyat turlari	O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni, <i>ming kishi</i>			Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - jami, <i>mlrd. so'm</i>		
		2020- yil	2021- yil	o'sish, foizda	2020- yil	2021- yil	o'sish, foizda
1	Sanoat	35,0	40,6	116,0	735,4	798,9	108,6
2	Qurilish	0,8	1,1	137,5	16,3	11,2	68,7
3	Savdo	2,9	2,7	93,1	36,9	36,1	97,8
4	Tashish va saqlash	2,5	2,6	104,0	19,5	23,3	119,5
5	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0,1	0,3	300,0	0,7	3,7	528,6
6	Axborot va aloqa	0,9	0,9	100,0	12,3	15,2	123,6
7	Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	4,0	3,9	97,5	124,1	159,0	128,1
8	Ta'lim sohasi	86,6	90,7	104,7	965,5	1 148,1	118,9
9	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasi	38,6	37,4	96,9	392,8	461,9	117,6
10	San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasi	2,1	2,1	100,0	19,6	22,7	115,8
11	Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasi	24,8	23,8	96,0	332,6	360,0	108,2
	<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>198,3</b>	<b>206,1</b>	<b>104,0</b>	<b>2 655,7</b>	<b>3 040,1</b>	<b>114,5</b>

Joriy yilning yanvar-iyun davrida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni ko'rsatkichi bo'yicha eng katta o'sish qurilish sohasida (32,2 % ga o'sish) va eng kam pasayish savdo sohasida (8,7 % ga kamayish) kuzatildi.

Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar ko'rsatkichi bo'yicha esa eng katta o'sish yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida (5,3 martaga o'sish) va eng kam pasayish qurilish sohasida (31,3 % ga kamayish) kuzatildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy mehnat ko'rsatkichlarining o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, foizda**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)




**Shahar va tumanlar kesimida asosiy mehnat ko'rsatkichlari**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, yanvar-iyun oylari)

№	Hudud	O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan va tashkilotda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni, ming kishi			Jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar - jami, mlrd so'm		
		2020- yil	2021- yil	o'sish, foizda	2020- yil	2021- yil	o'sish, foizda
	<b>Andijon viloyati</b>	<b>198,3</b>	<b>206,1</b>	<b>104,0</b>	<b>2 655,7</b>	<b>3 040,1</b>	<b>114,5</b>
	<i>shaharlar:</i>						
1	Andijon sh.	61,4	62,8	102,3	991,3	1 154,6	116,5
2	Xonobod sh.	4,7	4,7	100,0	67,0	69,7	104,0
	<i>tumanlar:</i>						
3	Oltinko'1	9,6	7,8	81,3	83,2	89,6	107,7
4	Andijon	13,0	13,4	103,1	144,2	158,7	110,1
5	Baliqchi	10,0	9,5	95,0	89,9	96,5	107,3
6	Bo'ston	4,7	5,1	108,5	44,3	51,4	116,0
7	Buloqboshi	6,3	6,9	109,5	61,1	70,8	115,9
8	Jalaquduq	7,5	8,1	108,0	83,7	94,2	112,5
9	Izboskan	9,7	9,5	97,9	99,7	117,8	118,2
10	Ulug'nor	4,0	4,2	105,0	38,4	44,6	116,1
11	Qo'rg'ontepa	9,8	12,5	127,6	101,8	143,3	140,8
12	Asaka	22,8	23,8	104,4	480,6	512,2	106,6
13	Marhamat	7,9	8,5	107,6	79,1	88,7	112,1
14	Shahrixon	12,5	11,8	94,4	127,9	138,1	108,0
15	Paxtaobod	8,1	9,1	112,3	86,5	112,5	130,1
16	Xo'jaobod	6,3	8,4	133,3	77,0	97,4	126,5

## Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha taqsimlanishi

(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xoʻjaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming soʻm)



## Ish haqi. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

*(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*



**Sanoat** iqtisodiy faoliyat turidagi 80 ta korxonada 40,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 19,7 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 798,9 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 26,3 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 3 393,2 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 9,7 % ga pasaygani aniqlandi.

**Qurilish** faoliyat turidagi 15 ta korxonada 1,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,5 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 11,2 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 830,3 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 50,5 % ga pasaygani aniqlandi.



**Savdo** faoliyat turidagi 23 ta korxonada 2,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,3 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 36,1 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 1,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 177,0 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 3,3 % ga o'sdi.



**Tashish va saqlash** faoliyat turidagi 13 ta korxonada 2,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,2 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 23,3 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 625,7 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga o'sdi.







### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

sohasidagi 6 ta korxonada 0,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 3,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,1 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 147,5 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 97,2 % ga o'sdi.

### **Axborot va aloqa**

sohasidagi 5 ta korxonada 0,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,5 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 15,2 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,5 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 636,5 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 19,1 % ga o'sdi.



### **Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik**

iqtisodiy faoliyat turidagi 25 ta korxonada 4,0 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,9 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 159,0 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 5,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 6 445,7 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 29,3 % ga o'sdi.



### **Ta'lim sohasi**

iqtisodiy faoliyat turidagi 2 099 ta korxonada 90,7 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 44,0 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 1 148,1 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 37,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 229,5 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 13,6 % ga o'sdi.





### **Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi**

72 ta korxonada 37,4 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,2 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 461,9 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 15,2 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 127,2 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 19,6 % ga o'sdi.

### **San'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasidagi**

187 ta korxonada 2,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 22,7 mlrd so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 0,7 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 830,2 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 8,9 % ga o'sdi.



### **Boshqa ijtimoiy xizmatlar sohasidagi**

2 367 ta korxonada 24,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 11,6 %) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 360,0 mlrd. so'mni (jami mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlardagi ulushi 11,8 %) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 2 507,1 ming so'mni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 11,8 % ga o'sdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyat turida kuzatildi va 6 445,7 ming so'mni tashkil etdi. Shuningdek yuqori ko'rsatkichlar sanoat faoliyat turida (3 393,2 ming so'm) va axborot va aloqa faoliyat turida (2 636,5 ming so'm) kuzatildi. Eng past ko'rsatkich esa tashish va saqlash faoliyat turida kuzatildi va 1 625,7 ming so'mni tashkil etdi.






**Shahar va tumanlar kesimidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
*(2021- yil yanvar - iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)*



Shuningdek, hududlar kesimida qaraydigan bo'lsak, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori miqdori Asaka tumani (3 762,9 ming so'm), Andijon shahrida (3 185,4 ming so'm) kuzatildi. Aksincha, Bo'ston va Baliqchi tumanlarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi boshqa hududlarga nisbatan past miqdorda bo'ldi.

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur’ati**  
(2021- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)




### O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2021- yil yanvar-iyun oylarida; qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming so‘mda)

	2020- yil	2021- yil	O‘sinh sur‘ati, %
<b>Andijon viloyati</b>	<b>2 373,9</b>	<b>2 575,1</b>	<b>108,5</b>
<i>shaharlar</i>			
Andijon sh.	2 850,6	3 185,4	111,7
Xonobod sh.	2 550,0	2 571,1	100,8
<i>tumanlar</i>			
Oltinko‘l	1 530,8	2 008,3	131,2
Andijon	1 950,2	2 074,0	106,3
Baliqchi	1 582,3	1 793,7	113,4
Bo‘ston	1 687,2	1 760,7	104,4
Buloqboshi	1 708,7	1 800,8	105,4
Jalaquduq	1 965,8	2 047,7	104,2
Izboskan	1 810,0	2 191,7	121,1
Ulug‘nor	1 686,5	1 859,7	110,3
Qo‘rg‘ontepa	1 830,0	2 015,8	110,2
Asaka	3 800,8	3 762,9	99,0
Marhamat	1 770,1	1 828,5	103,3
Shahrixon	1 813,8	2 050,3	113,0
Paxtaobod	1 872,1	2 178,7	116,4
Xo‘jaobod	2 172,1	2 039,1	93,9

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining  
viloyat ko'rsatkichiga nisbatan o'sish sur'ati**  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida, qishloq xo'jaligi va kichik  
tadbirkorlik subyektlarisiz, foizda)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, o'rtacha oylik ish haqining viloyat ko'rsatkichiga nisbatan yuqori darajasi Asaka tumani (3 762,9 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 46,1 %ga yuqori), Andijon shahri (3 185,4 ming so'm, 23,7 %ga yuqori) da kuzatilgan bo'lsa, Baliqchi tumani (1 793,7 ming so'm, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 30,3 %ga past), va Bo'ston tumani (1 760,7 ming so'm, viloyat ko'rsatkichidan 31,6 %ga past) da kuzatildi.

**Ma'lumot uchun:**

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2021- yil fevral oyida **747 300** so'mni tashkil etgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020- yil 30-dekabrdagi PQ 4 938-sonli qaroriga binoan, mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasiga o'zgartirish kiritildi va 1,2,3-razryadlari koeffitsiyentlari oshirildi) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

